

HARBIY XIZMATGA MOSLASHUVNING O'ZIGA XOSLIGI

Xoliqova Dilnavoz Alimatovna *f.f.n., dotsent.*

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi HTM PK MOM dotsenti

Urmonov Ravshanbek Gulomovich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi magistranti

Annotatsiya: *maqolada harbiy xizmat jarayoni, uning o'ziga xosligi, xizmatga moslashuvning qiyinchiliklari, harbiy xizmatchilarning faoliyatga moslashuvi atroficha tahlil qilingan. Xorij va mamlakatimizda moslashuv muammosining psixologiyada ilmiy o'rganilishi, ta'rifi bo'yicha, ilmiy yondashuvlar qiyosiy o'rganilgan. Ijtimoiy adaptatsiya, adaptatsiya motivlari, moslashishda xulq-atvorning ahamiyati borasida fikr yuritilgan.*

Kalit iboralar: *harbiy xizmat, o'ziga xoslik, xizmatga moslashuv, qiyinchilik, harbiy xizmatchi, faoliyatga moslashuv, moslashuv muammosi, ilmiy o'rgansh, ilmiy yondashuv, ijtimoiy adaptatsiya, adaptatsiya motivlari, xulq-atvor.*

Harbiy ish mamlakat tinchligi va taraqqiyotini ta'minlashdagi eng muhim bo'g'in hisoblanadi. Bu bo'g'in mustahkamligi esa albatta fuqarolarning vatanparvarligi bilan belgilanadi. Muddatli harbiy xizmatga chaqirilganda har qanday insonda yangi faoliyat va Nizom talablari asosida yashash ko'nikmasi paydo bo'lishi biroz qiyinchiliklar bilan kechadi.

Armiya saflarida xizmat qilish jarayoni ana shu murakkablikdan boshlanib, mardonavor ishga aylanadi. Zero, Prezidentimiz Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek:"Keyingi yillarda "Xalq va armiya bir tan-u bir jon" degan ezgu g'oya asosida Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini oshirish, harbiy qurilish sohasini tubdan modernizatsiya qilish bo'yicha olib borayotgan islohotlarimiz natijasida milliy armiyamizda chuqur sifat o'zgarishlari yuz bermoqda, uning saflarida xizmat qilish tom ma'noda shon-sharaf ishiga aylanib bormoqda"[5]. Darhaqiqat, harbiy xizmatga moslashuvni o'rganish har doim dolzarblik kasb etadi.

Moslashuv muammosi psixologiya fanida mavjud bo'lgan ilmiy maktablarda turlicha tahlil qilingan bo'lib, harbiy faoliyat doirasida intizomni ta'minlash nazari bilan qaraganda bu dolzarb amaliy mazmun kasb etadigan mavzu hisoblanadi. Harbiy sohasida moslashuv mavzusi rivojlangan mamlakatlarda atroficha o'rganilgan: Berezin F.B., Bibrix P.P., Bistriskaya A.F., Askarin I.Yu., Budarin Ye.A., Dobryak S.A., Mejuev A.V., Obrazsov P.I., Safanova Ye.V., Yanin S.V. va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarda mavzu yetarlicha o'rganilgan. Olib borilgan tadqiqotlarda muammo umumiy, an'anaviy uslublarda tadqiq etilgan. Bu mavzuning ijtimoiy jihatlari harbiy tadqiqotchilar tomonidan - falsafa va psixologik yo'nalishida N.Narikov, A.Oleynik; sotsiologiyo yo'nalishida S.Voroshilov, S.Koninin, A.Tyurikov, Ye.Volkov; psixologiya fanida A.Boenko, V.Fedotov[1]; pedagogika ixtisosligida S.Buranov[2] kabilar tomonidan tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda esa bu mavzu X.R. Qodirova, N.G. Ismatova, D.Muqimovalar tomonidan talabalarning o'quv jarayoniga moslashuv doirasida o'rganilgan bo'lsa, harbiy fanlar dotsenti polkovnik Z.Yunusovning ilmiy tadqiqotlari asosidagi kursantlarning kasbiy adaptatsiyasiga bag'ishlangan ilmiy maqolalari va podpolkovnik O.O'rinovalning ofitserlar

kasbiy adaptatsiyasi doirasidagi ilmiy maqolalari bor. R.Samarov[7], A.Qambarov, S.Rahimmirzaev, S.Ahrorov, O.Abdurasulov, E.Rasulov, Z.Yunusov[9] kabi harbiy tadqiqotchilar tomonidan masalani ayrim jihatlari o'rganilgan. Mavzu keng ko'lamda yetarlicha o'rganilmagan.

Harbiy xizmatchilarning harbiy xizmat sharoitlariga moslashuvi bir-biridan farq qiladi. Harbiy xizmat sharoitlariga moslashuvning asosiy omillarini kasbiy, ijtimoiy-psixologik, iqlimiyl-geografik deb ajratiladi.

Kasbiy omillar – harbiy-kasbiy faoliyat jarayonidagi omillar bo'lib, inson organizmi va psixikasiga turli ta'sirlar natijasida yuzaga kelgan: real xavf-xatar orqali yuzaga kelgan surunkali psixologik zo'riqish, ko'p sutkali, me'yorda bo'lмагan vazifaning ortib ketishi, to'liq dam olishning yo'qligi, harbiy-texnik mutaxassis organizmiga qo'shimcha ta'sirlar bo'lishi kabilardir.

Ijtimoiy-psixologik omillar – bu joylashuv, ovqatlanish va suv ta'minotining o'ziga xosliklari bilan bog'liq maishiy noqulayliklar, nisbatan sensor yoki informatsion izolyatsiya (yolg'izlanib qolish) uzoq vaqt oila, o'rganilgan sharoit, hayotdan uzoqda bo'lishi kabilardir. Harbiy xizmatchilarni xizmatga moslashtirish muhim muammo ekanligini inobatga olsak, mazkur holatda "ijtimoiy moslashtirish" tushunchasining pedagogik talqinini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aksariyat tadqiqotlarda moslashuvning o'ziga xos turi sifatida "ijtimoiy-psixologik moslashuv"ga alohida e'tibor qaratilib, faqat uning psixologik jihatlarini yoritib berish bilan cheklaniladi. Bizningcha, ijtimoiylashuv inson o'zini jamiyatda shaxs sifatida anglab borishi jarayoni ekan, bu tarbiya, ta'lim, o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida yuzaga kelib, inson qachonki o'z maqsadlarini mustaqil aniqlay olsa va ularga erishish yo'llarini belgilay olganida, o'z qadr-qimmatini anglab yetganida, jamiyatdagi o'z o'rniga ishonch hosil qilgan taqdirda amalga oshadi.

E.G'. G'oziev ta'kidlab o'tganidek, shaxsning ijtimoiylashuvi – ta'lim-tarbiya ta'sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yor va qoidalarining o'zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasidir [3].

Harbiy psixologiyada moslashuv jarayoni haqida gap borar ekan, mazkur holatda "ijtimoiy moslashtirish" tushunchasining pedagogik talqinini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aksariyat tadqiqotlarda moslashuvning o'ziga xos turi sifatida "ijtimoiy-psixologik moslashuv"ga alohida e'tibor qaratilib, faqat uning psixologik jihatlarini yoritib berish bilan cheklaniladi. Bizningcha, ijtimoiylashuv inson o'zini jamiyatda shaxs sifatida anglab borishi jarayoni ekan, bu tarbiya, ta'lim, o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida yuzaga kelib, inson qachonki o'z maqsadlarini mustaqil aniqlay olsa va ularga erishish yo'llarini belgilay olganida, o'z qadr-qimmatini anglab yetganida, jamiyatdagi o'z o'rniga ishonch hosil qilgan taqdirda amalga oshadi.

Ijtimoiy-psixologik moslashish - harbiy qismning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'zlashtirishda, unda aks etgan o'zaro munosabatlari tizimiga kirishda, uning a'zolari bilan o'zaro ijobjiy hamjihat bo'lishda o'z ifodasini topadi. Bunda harbiy xizmatchi qismning o'zaro munosabatlari tizimiga, uning an'analari, hayot normalari, qadriyatlari, guruhdagi ayrim a'zolarning ijtimoiy-psixologik nuqtai nazarlari, o'zaro munosabatlari tuzilishi, guruhdagi yetakchilar to'g'risida axborotlarga ega bo'ladi. Agar axborot harbiy xizmatchining oldingi tajribasiga, tutgan yo'liga mos kelsa, ijobjiy baholaydi va harbiy xizmatchi guruhdagi normalarni qabul qila boshlaydi. Sekin-asta shaxsning o'z guruhi bilan uyg'unlashib borish jarayoni sodir

bo'ladi. Harbiy xizmatchi ijtimoiy-psixologik moslashuv jarayonida harbiy qismning real hayotiga kirib boradi, unda ishtirok etadi, harbiy xizmatchida hamkasblari, rahbarlar, boshliqlar bilan o'zaro ijobiy munosabatlar qaror topadi.

Ijtimoiy-tashkiliy moslashish - harbiy qismning tashkiliy tuzilishi, boshqaruvi tizimi va ishlab chiqarish jarayoni, xizmat ko'rsatish tizimini, xizmat va dam olish rejimini o'zlashtirishni bildiradi.

Madaniy-maishiy moslashish - bu, harbiy qismdagi turmush xususiyatlari va bo'sh vaqt ni o'tkazish an'analarini o'zlashtirishdir. Bu moslashuv xususiyati ishlab chiqarish madaniyati darajasi, harbiy qism a'zolarining umumiy rivojlanishi, ishdan bo'sh vaqt dan foydalanish xususiyatlari bilan belgilanadi[8].

Iqlimiyl-geografik omillar - jangovar faoliyat olib borilayotgan hududning iqlim-geografik o'ziga xosliklari inson organizmiga havodagi yuqori va past harorat, yuqori yoki past atmosfera bosimi, havoning siyrakligi, yuqori namlik, qum, changlikning ta'siri va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Insonning nostandart sharoitlarga moslashishi jarayoni o'ta xilma-xil va shaxsning ko'pgina ierarxik (bosqichma-bosqich) darajalariga: ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik, psixologik, psixojismoniy ta'sir qiladi.

Bu jarayonda harbiy xizmatchilarining real xavf bo'lishi mumkin bo'lgan jiddiy kasb faoliyatiga o'rganish jarayonining o'ziga xosliklari mayjud. Jumladan, jangovar faoliyat sharoitlariga moslashish jarayoni tez bo'lib o'tishi kerak, bunda muvaffaqiyatli moslashish jarayoni ehtimoli juda kam. Bundan tashqari, aksariyat ko'p holatlarda bu jarayon moslashuvning "sinishi" va moslasha olmaslik rivojlanishi bilan tugaydi. Ekstremal vaziyatlarda harbiy xizmatchilar faoliyatining muvaffaqiyati nafaqat uning moslashuv jarayoni samaradorligi darajasiga, balki shaxsning ma'lum bir vaqt oralig'ida o'zining jismoniy holatini aniq (adekvat) boshqarishini saqlab qolishida hamdir.

Jangovar vaziyatlarda kasbiy faoliyat olib boradigan shaxslardagi psixofiziologik holat va axloqiy reaksiyalarning o'ziga xosliklarini o'rganish harbiy xizmatchilarining ekstremal vaziyatlarga moslashishi o'shining aniq qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi. Jumladan, uchta asosiy davr ajratiladi: moslashuvning boshlang'ich davri, organizm funksional imkoniyatlari nisbatan me'yorga kelishi davri va yakuniy davr - moslashuvga qarshiliklar namoyon bo'lishi davri.

Moslashuvning boshlang'ich davri - jangovar faoliyatning noqulay ijtimoiy-psixologik omillariga organizm va shaxsning umumiy qayta moslashuvi - bilan xarakterlanadi. Bu davr organizm funksional imkoniyatlarining vaqtincha pasayishi, ishga yaroqlilik qobiliyati darajasi bilan kuzatiladi. Bu davr harbiy xizmatchi faoliyatining aniq sharoitlaridan kelib chiqib, bir haftadan 1-1,5 oygacha davom etadi[8].

Organizm funksional imkoniyatlarining nisbatan bir me'yorga kelish davri - kasbiy faoliyatning yangi o'zgarishlarga boy, jo'shqin qolipi shakllanishi bilan bog'liq. Jangovar vaziyat nooddatiy sharoitlariga moslashuv bu vaqtida asosan nihoyasiga yetadi va boshqaruvi tizimlarining nisbatan mustahkam ishslashining yangi darajasi shakllanadi.

Moslashuvga qarshilik ko'rsatish davri - aniq namoyon bo'ladigan, moslashuvga qarshi buzilishlar va kasbiy ish qobiliyati darajasining xizmat vazifalarini bajarishdan to'la bosh tortishgacha boradigan darajasi.

Moslashuv davrining davomiyligi ko'pincha asabiy, psixologik zo'riqishlar darajasiga bog'liq. Shunday qilib, real hayotga xavf solishi mumkin bo'lgan vaziyatda kasbiy faoliyatda o'ta zo'riqishni keltirib chiqaradigan, harbiy xizmatchilarda aniq namoyon bo'ladigan moslashuvga qarshi buzilishlarning rivojlanishi 3-6 oy davomida kuzatilishi aniqlangan. Bunda moslashuvga qarshi buzilishlar rivojlanishida quyidagi qonuniyatlar aniqlangan: jangovar harakatlar boshlanishida harbiy xizmatchilarda jismoniy va ruhiy-siqilish o'zgarishlari va holatlari, keyinroq esa jangovar harakatlarda ishtirok etish, u holatdan chiqish va bu davr uchun o'ziga xosligida psixologik rekatsiyalar xarakterlidir. Shunga e'tibor berish kerakki, harbiy sharoitlarda moslashuvga qarshi buzilishlar xarakteriga nafaqat jangovar zo'riqish darajasi, balki harbiy xizmatchining dastlabki psixojismoniy holati darajasi, uning individual-psixologik o'ziga xosliklari ham o'z ta'sirini o'tkazadi: asab-psixologik barqarorlik darajasining yuqoriligi yangi sharoitlarga tez va optimal moslashuvga imkon beradi.

Ko'p sonli tadqiqotlar asosida ekstremal vaziyatlardagi xulq-atvorning o'ziga xosligi, shuningdek, harbiy xizmatchilar psixik holati o'sishining tahlili uchta asosiy tipga bo'lingan: eng qulay (optimal), noqulay (nooptimal), o'zgarib ketgan (patologik).

Harbiy xizmatga moslashuvning eng qulay (optimal) tipi. Moslashuvning bunday tipidagi harbiy xizmatchilar yetarli darajada asab-psixologik barqarorlikka ega bo'ladilar va harbiy xizmat davomida ish va jangovar qobiliyatni saqlab qoladilar[4].

Harbiy xizmatga moslashuvning noqulay (nooptimal) tipi bu moslashuv harbiy xizmatchilarda alohida asab-psixologik beqarorligi belgilarining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Bunday harbiy xizmatchilarda moslashuvning buzilishi faoliyatning ekstremal sharoiti yoki favqulodda vaziyatlarda yuzaga keladi[6].

Harbiy xizmatga moslashuvning o'zgarib ketgan (patologik) tipida esa harbiy xizmatchilarda harbiy intizom buzilishi, harbiy-kasbiy faoliyat samaradorligining yuqori darajadagi to'xtab qolishi ehtimoli namoyon bo'lishi, birdaniga sog'likning yomonlashib ketishi kabi asab-psixologik beqarorlikning aniq belgilariga ega bo'ladilar.

Askarning jangovar stressning jarohatlovchi ta'siriga qarshi turish qobiliyatini oshirish uchun jangovar adaptatsiya yoki "jang bilan emlash" usularidan foydalaniladi. Jangovar adaptatsiya askarning jangovar vaziyatlariga maksimal yakinlashtirilgan sharoitlarda mashq qilishiga asoslangan[4].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatga moslashuvi mavzusi jahon psixologiyasida yetarlicha o'rganilgan, moslashuvga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, moslashuv davomiyligi, moslashuvda shaxsiy xususiyatlarning ta'siri kabilar atroficha tadqiq etilan.

Harbiy xizmat sharoitlariga moslashuvning kasbiy, ijtimoiy-psixologik, iqlimiyl-geografik kabi asosiy omillarini tahlil qilish ularning ijobiylilik imkoniyatlatini belgilashga sabab bo'ladi.

Jangovar vaziyatlarda kasbiy faoliyat olib boradigan shaxslardagi psixofiziologik holat va axloqiy reaksiyalarning o'ziga xosliklarini o'rganish harbiy xizmatchilarning ekstremal vaziyatlarga moslashishi o'sishining aniq qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Harbiy xizmatchilarni kasbiy faoliyatiga moslashuvini osonlashtirish shart-sharoitlarini osonlashtirish uchun ularning tipologiyasini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Боенко А.В. Суицидальное поведение военнослужащих срочной службы и его профилактика: Автореф. дис. канд. психол наук. - М.: ГА ВС. 1992. - 25 с., (2)
2. Буренов С.Н. Педагогическая диагностика отклоняющегося поведения сержант и солдат частей сухопутных войс: Автореф. дис. канд. психол наук. - М.: ВУ. 1999.-24 с.,(3)
3. Фозиев Э.Ф. Умумий психология. Тошкент. 2002.1-китоб -Б 64.(6)
4. Камбарова А.М. Военно-педагогические основы оптимизации морально-психологического фактора в учебно-воспитательном процессе военнослужащих. Ташкент, 2005. -24 с.(8)
5. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrige. Vatanparvar gazetas.2024,14-yanvar №2. (1)
6. Расулов Э.Х. Проблема патриотизма и патриотического воспитания. Ташкент, 2001. -52 с.(9)
7. Самаров Р.С. Қуролли Кучлар тизимиининг феминизациялашуви: ривожланишининг ўзига хослиги ва ижтимоий механизми. Тошкент: ЎзМУ, 2005.-45 б(4).
8. Урунов Ў.Р. Кундалик ҳарбий хизмат фаолиятининг психологик хусусиятлари. Тошкент: ҚКА, 2015. -Б15.(7)
9. Yunusov Z. Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarining professional tayyorgarligini didaktik modellashtirish. Harb. fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoref. -T., 53 b.(5)